

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ASHUROVA MARHABO SAYFULLOYEVNA**

**HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARI VOSITASIDA TALABALARDA  
MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH  
TEXNOLOGIYASI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

**Ashurova Marhabo Sayfulloevna**

Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi.....	3
--	---

**Ашуррова Мархабо Сайфуллоевна**

Технология развития духовно-нравственных качеств у учащихся через произведения Хусейна Ваиза Кошифи.....	21
--	----

**Ashurova Markhabo Sayfulloevna**

Technology for the development of spiritual and moral qualities in students through the works of Hussein Vaiz Kashifi.....	43
--	----

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ	
List of published works .....	48

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ASHUROVA MARHABO SAYFULLOYEVNA**

**HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARI VOSITASIDA TALABALARDA  
MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH  
TEXNOLOGIYASI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Termiz – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.3.PhD/Ped3816 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich,**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xudoyqulov Xol Jumayevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel.: +99876221-74-55; faks:+99876221-71-17; e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy. Tel.: +99876221 221-74-55).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ -raqamli reestr bayonnomasi).

**I.Chariyev**

Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor.

**A.B.Narbayev**

Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash kotibi, p.f.b.f.d. (PhD).

**I.Allakov**

Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, f-m.f.d., professor.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Juhon miqyosida bugungi kunda globallashuv jarayonida ayrim xalqlar madaniyati rivojlanishida turli darajadagi murakkab ijtimoiy-siyosiy harakatlar va ma’naviy-axloqiy transformatsiya almashinuvi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, insoniyat jamiyatini tashvishga qo‘yayotgan muammo shundan iboratki, o‘z maqsadlariga erishish uchun olib borilayotgan bugungi kurashda xalqaro huquqqa zid bo‘lgan usul va vositalardan foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Shubhasiz, bunday sharoitda xalqning pedagogik tafakkuri va, ayniqsa, buyuk mutafakkirlarning pedagogik g‘oyalarni o‘rganish va tahlil qilish, bir tomondan, yosh avlodni axloqiy tarbiyalash va ma’naviy yuksaltirishda milliy xususiyatlarni hisobga olish, ikkinchi tomondan, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni ta’minalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Husayn Voiz Koshifiy merosi bugungi kundagi oliy maqsadimiz bo‘lgan yoshlarimizni komillik, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash, qolaversa, jamiyatimizda ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi o‘rnini qayd etar ekanmiz, ushbu mutafakkir merosini har tomonlama tadqiq etish va o‘rganish tobora dolzarb ahamiyat kasb etaveradi.

Dunyo miqyosidagi oliy ta’lim muassasalarida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining boy merosini o‘rganish oliy ta’lim muassasalarida, ularning asarlari ta’sir doirasi kengayish omillari va yosh avlodni tarbiyalashda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg‘or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu boisdan ham, milliy ta’lim va tarbiya sohasiga ajdodlar merosini keng joriy etish asosida yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, jahon kutubxonalarida Husayn Voiz Koshifiyning axloq ilmi, ustoz-shogird munosabatlari, chiroyl xulq va muloyimlik, rostgo‘ylik, sabr, qanoat,adolat, muomala va suhbatlashish, farosat tushunchalari tadqiq qilingan ta’lim-tarbiya sohasidagi maxsus asarlari bilan yaqindan tanishib chiqish hamda bu manbalardagi jamiyat, inson, hayot tarzi, odamiylik, muruvvat, futuvvat, saxovat, kasb-hunarni egallash, insonning turli-tuman ehtiyojlari, ilm-fanning jamiyatdagi o‘rni haqida o‘z mulohazalarini chuqr o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini yuksaltirish, tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, muomala madaniyati, insonparvarlik, tinchlik va hamjihatlikka intilishi, bag‘rikenglik, vatanparvarlik haqidagi muhim xislatlarni takomillashtirish va jamiyat taraqqiyoti farovonligini ta’minalash, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalashga qaratilgan o‘qitish metodikasini takomillashtirish asosiy vazifalar sifatida belgilanmoqda. Aynan allomalarning boy ilmiy merosini o‘rganish, xususan, Husayn Voiz Koshifiyning ma’rifatparvarlik g‘oyalari nafaqat o‘zbek xalqining pedagogik tafakkurini yanada rivojlantirish uchun asos yaratadi, balki kelajakda ta’lim va tarbiya sohasini modernizatsiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kunda tarixiy, ilmiy, madaniy, milliy qadriyatlarni, shu jumladan, pedagogik qadriyatlarni yanada

izchil va chuqurroq o‘rganish va qayta tiklash zarurati mavjud. Ushbu yo‘nalishda o‘zbek xalqi so‘nggi yillarda asta-sekin jahon hamjamiyatining teng huquqli a‘zosiga aylanmoqda. Istiqlol sharofati bilan mamlakatimizning jahon hamjamiyati oldidagi obro‘-e’tibori tobora oshmoqda. Bu esa, boy madaniy merosimiz bilan chambarchas bog‘liq. Ajdodlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan ko‘plab ma’naviy-axloqiy g‘oyalar, shu jumladan, Husayn Voiz Koshifiy merosi, bir necha asrlar mobaynida ko‘plab avlodlarni tarbiyalash va o‘qitilishi haligacha o‘rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu tadqiqot mavzusini o‘rganish jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida dolzarb ahamiyat kashb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2017-yil 19-maydagи Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘slik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-5046-sonli, 2017-yil 28-iyuldagи Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risidagi PQ-3160-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24 - maydagи Qarori, Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-2995-sonli qarorlari, 2019-yil 8-apreldagi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PF-5465-sonli Farmoyishi, Vazirlar Mahkanasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori hamda mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “I.Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Faylasuflar, siyosatshunoslar, axloqshunoslar tomonidan Husayn Voiz Koshifiyning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari, xususan, ijtimoiy me’yorlar, ularning ahamiyati, amal qilish mexanizmi va maqbul me’yorlarni shakllantirish usullariga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, E.Yusupov, R.A.Ubaydullayeva, S.A.Dashtamirov, S.F.Anasimov, A.G.Xarchev, M.Imomnazarov, N.Komilov, H.Shayxov, Q.Nazarov, M.Kolmatova, M.B.Bekmurodov, A.Yunusov, U.Uvatov, K.Hoshimovlar mazkur muammoning falsafiy va tilshunoslik tomonlarini o‘rgangan.

G‘arbiy Yevropalik olimlar E.Kennedi, M.Duayt, D.Donalson, E.Braun, A.Arberri, E.Rozental, X.Masse, X.Kin, K.Lambton, R.Levi, A.Shastri kabi sharqshunos olimlar Husayn Voiz Koshifiy asarlarining ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti masalasini tadqiq qilganlar.

Xorijiy davlatlardan Saudiya Arabistoni, Turkiya, Rossiya, Eron, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlarning olimlari ham Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy merosiga

qiziqish bildirib, tadqiqot ishlari olib borganlar. Bu borada Ali Abdulfattoh al-Mag‘ribiy, O‘zturk Yashar Nuri, Abu Amin Bilol Fillirs, Sh.Alyatutdinov, R.V.Pashkov, T.Xabibulin, B.S.Nersesyans, R.Botirlarning izlanishlarini ko‘rsatish mumkin. Mazkur ilmiy tadqiqotlarda Husayn Voiz Koshifiyning falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, tarix, kimyo, astronomiya, matematika, musiqa, voizlik, she’r san’ati hamda tibbiyotga oid olib borgan ilmiy faoliyatiga doir asarlari tadqiq qilingan.

Husayn Voiz Koshifiyning bir necha asarlarida komil inson muammosi bilim, ta’lim va ma’naviy-axloqiy sifatlar uyg‘unligi ifodalanib, rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, muruvvat, insof,adolat, sadoqat, xushmuomalalik, shirinso‘zlik, saxovat, himmatlilik, tavoze, bilimga chanqoqlik, donishmandlik, halollik, ezbilik kabi fazilatlar inson barkamolligining me’yorlari sifatida talqin qilinadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy–tadqiqot ishlari rejasining “Yuksak ma’naviyatli, jismonan barkamol shaxsni tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- Husayn Voiz Koshifiyning hayot yo‘li, ma’naviy-axloqiy merosining mazmun-mohiyati, pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillarini aniqlashtirish;
- Husayn Voiz Koshifiyning ma’naviy-axloqiy fazilatlarga doir qarashlari evolyutsiyasini tadqiq qilish;
- xorijiy va mahalliy olimlar olib borgan tadqiqotlardan kelib chiqib, Husayn Voiz Koshifiyning ma’naviy-axloqiy fazilatlarga oid ilmiy merosining tutgan o‘rni, ilmiy-amaliy ahamiyatini maxsus o‘quv kursi dasturiga tegishli mavzular asosida takomillashtirish;
- Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Navoiy davlat pedagogika institutlarining 360 nafar talabalari ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmeti** Husayn Voiz Koshifiy asarlarida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning shakl, usul, vositalari va texnologiyalari.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, tahlil etish, sotsiometrik, anketa, intervyu, suhbat, pedagogik tajriba-sinov, matematik statistik tahlil usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Husayn Voiz Koshifiyning hayot yo‘li, ma’naviy-axloqiy merosining mazmun-mohiyati, turli ilmiy-amaliy yondashuvlar yoritildi va tarbiya bilan bog‘liq fanlarning

o‘quv dasturlari tegishli mavzulari yangi ma’lumotlar bilan boyitilib, uning pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillari aniqlashtirilgan;

talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda Husayn Voiz Koshifiyning ma’naviy-axloqiy fazilatlarga doir qarashlari ajdodlarimizning pedagogik ta’limotlari bilan zamonaviy yondashuvlar “Taqidiy fikrlar”, “Fikriy boshqotirma”, “Qora quti”, “Beshinchisi ortiqcha”, “Kouching”, “Insert”, “Zara”, “Muammoli unsurli seminar” kabi interfaol metodlar evolyutsiyasi tashkiliy, mazmunli, natija komponentlariga oid ilg‘or tajribalari verbal-mantiqiy tarzda tadqiq qilingan;

Husayn Voiz Koshifiyning ma’naviy-axloqiy fazilatlarga oid pedagogik qarashlari asosida ota-onasi bilan farzand, ustoz va shogird munosabatlarini o‘zida mujassamlashtirgan tarbiyaviy omillar orqali talaba-yoshlarni kasbiy tayyorgarlikga kompetensiyaviy tayyorlash natijasida o‘qitish samaradorligining funksional imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan “Pedagogik ta’limotlar tarixi” maxsus kurs o‘quv dasturiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda ommaviy, guruhli va yakka shaklda Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish “Ma’naviy barkamol avlod – barqaror jamiyat bunyodkori” tamoyili asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda Vatanga sadoqat, milliy g‘urur, burch va mas’uliyat tuyg‘ularini mustahkamlashga doir tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilarda o‘z aksini topgan:

Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy” asarida keltirilgan ma’naviy-axloqiy fazilatlarni o‘rganish va aniqlashtirish asosida “Ustoz-shogird” munosabatini baholash mexanizmi empirik tadqiq qilingan;

Husayn Voiz Koshifiyning ma’naviy-axloqiy fazilatlarni o‘rganish va aniqlashtirishga doir axborot-kommunikatsion, etnopedagogik va ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi bo‘yicha “Umumiyy pedagogika (Pedagogika tarixi)” nomli o‘quv qo‘llamma nashr etilgan;

Husayn Voiz Koshifiy asarlarida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tadqiq qilishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari takomillashtirilgan;

Husayn Voiz Koshifiy asarlarida keltirilgan ma’naviy-axloqiy merosning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishga doir ilmiy tadqiqotlarning saviyasini dunyo pedagog olimlarining qarashlarining o‘ziga xos jihatlarini hamda o‘rganilmagan qirralari yuzasidan tadqiqot olib borish imkoniyati yaratildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, uning o‘rganilish chegaralari aniq belgilanishi, nazariy ma’lumotlar va dalillar xorijiy pedagog olimlarning nazariy g‘oyalariga asoslanganligi, qiyosiy-taqidiy o‘rganish, tahlil etish, sotsiometrik, anketa, intervyu, suhbat, pedagogik tajriba-sinov, matematik va statistik tahlil usullari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, Husayn Voiz Koshifiyning ma’naviy-axloqiy merosini pedagogik nuqtayi nazardan o‘rganishga xizmat qilishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek,

dissertatsiyada bayon etilgan xulosalar ushbu yo‘nalishdagi keyingi tadqiqotlar uchun muayyan nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundaki, nazariy xulosalar va umumlashmalar, aniq amaliy taklif-tavsiyalardan respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazining joylardagi bo‘limlari, fuqarolik yig‘inlari faoliyatida, shuningdek, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi muassasalarida pedagogika fanlarini o‘qitishda, talabalar uchun uysushtiriladigan muloqot, davra suhbatlarida hamda ushbu yo‘nalishdagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida:

Husayn Voiz Koshifiyning hayot yo‘li, ma’naviy-axloqiy merosining mazmun-mohiyati, turli ilmiy-amaliy yondashuvlar yoritildi va tarbiya bilan bog‘liq fanlarning o‘quv dasturlari tegishli mavzulari yangi ma’lumotlar bilan boyitilib, uning pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillariga doir xulosalardan Buxoro davlat universitetining “PZ-202005236-raqamli Oila psixologiyasi fanidan multimedya mahsulotini yaratish” (2021-2022-yillarga mo‘ljallangan) mavzusidagi innovatsion – tadqiqot loyihasining “Husayn Voiz Koshifiy merosini o‘rganish jarayonida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari” qismini bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2022-yil 28-dekabrdagi 01-04/01-2819-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish va ularni kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalari takomillashtirilgan;

talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda Husayn Voiz Koshifiyning ma’naviy-axloqiy fazilatlarga doir qarashlari ajdodlarimizning pedagogik ta’limotlari bilan zamonaviy yondashuvlar “Taqnidiy fikrlar”, “Fikriy boshqotirma”, “Qora quti”, “Beshinchisi ortiqcha”, “Kouching”, “Insert”, “Zara”, “Muammoli unsurli seminar” kabi interfaol metodlar evolyutsiyasi tashkiliy, mazmunli, natija komponentlariga oid ilg‘or tajribalar “Umumiyyet pedagogika (Pedagogika tarixi)” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2022-yil 19-iyuldaggi 233-sonli buyrug‘i asosida berilgan 233-0338-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish assosida ta’lim-tarbiya jarayoni sabab-oqibat qonuniyatlariga asosan takomillashtirilgan.

auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda ommaviy, guruhli va yakka shaklda Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish “Ma’naviy barkamol avlod – barqaror jamiyat buniyodkori” tamoyili asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda Vatanga sadoqat, milliy g‘urur, burch va mas’uliyat tuyg‘ularini mustahkamlashga doir tavsiyalardan “Umumiyyet pedagogika” fanining “Pedagogika tarixi” bo‘limi hamda “Xalq pedagogikasi” fanlarining mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tadbiq etish markazining 2022-yil 22-sentabrdagi 02/01-01-43-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning shaxsiy, axloqiy, huquqiy, ijtimoiy, kreativlik, tashkiliy-boshqaruv, pedagogik faoliyat kompetentligi rivojlantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza shaklida taqdim etilib, aprobasiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 16 ta maqola, shundan 7 tasi respublika va 9 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 167 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natjalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Husayn Voiz Koshifiyning ma’naviy-axloqiy merosini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida Husayn Voiz Koshifiy merosini o‘rganish jarayonida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish-pedagogik-psixologik xususiyatlari, “Axloqi Muhsiniy” va “Futuvatnomai Sultoniy” asarlarida ustoz-shogird munosabatlariiga oid g‘oyalarning o‘ziga xos xususiyatlari pedagogik nuqtayi nazardan yoritilgan. Husayn Voiz Koshifiy asarlaridagi ma’naviy-axloqiy fazilatlar: “Ustoz-shogird” munosabatlari, chiroyli xulq va muloyimlik, rostgo‘ylik, sabr, qanoat,adolat, vafo va ahd, omonat va diyonat, shafqatlilik, muomala va suhbatlashish, farosat tuchunchalari tavsiflangan. Ushbu tushunshalarning bugungi kun yoshlар tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati, shaxs sifatida shakllanishidagi ijobiy ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Professor H.Aliqulov tadqiqotida Husayn Voiz Koshifiyning notiqlik mahoratiga alohida e’tibor bergen bo‘lsa, eronlik olim Mirza Abdurahmon Voiz Koshifiyni so‘fi, ya’ni hadislarni tushuntiruvchi, - deb ta’kidlagan.

Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, “Axloqi Karim”, “Risolati Xotamia”, “Mavohibi oliya” asarlari nemis, ingliz, fransuz, turk, fors, arab, grek tillariga tarjima qilingan. Yevropaning taniqli olimlari A.Kraft, V.Persh, O.Omer, G.Ete, X.Re, E.Rexatzek, F.Karata, Daorn, E.Braun, Y.Bloshe, A.Arbellilar tomonidan asarlar katalogi yaratilgan.

Husayn Voiz Koshifiy hayoti va ilmiy merosi o‘tgan asrning 80-yillarigacha nisbatan kam o‘rganilgan. Adabiyotlar tahlili Husayn Voiz Koshifiyning ism-sharifi tadqiqotchi, olimlarning asarlarida turlicha nomlanganligini ko‘rsatadi. Masalan, XV asrning “Amir al-muarixin” (“Tarixchilar amiri”) unvoniga ega mashhur tarixchisi

G‘iyosiddin Xondamir “Makorim ul–axloq” asarida “Ismi Husayn ibn Ali Bayhaqiy Hiraviy, taxallusi Voiz Koshifiy nomi bilan mashhur “Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-ahyor” (“Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi”) 1498-1499-yillar orasida yozilgan asarida “Mavlono Kamoluddin Husayn Voiz”, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi B.Ahmedov Kamoluddin Husayn ibn Ali Voiz al– Koshifiy, Husayn binni Aliyul–Koshifiy, akademik A.Mirzoyev Mullo Husayn binni Ali Voiz Koshifiy, Xoliq Mirzozoda Husayn Voiz Koshifiy, tadqiqotchi O.Usmonova Kamoluddin Husayn ben Ali Boyhaqi Xurosoniy, mutafakkir asarlarining qo‘lyozmalarini ko‘chiruvchi xattotlar esa “Kitobi Hotamnomा” asarida “Husayn al Koshifiy”, “Axloqi Muxsiniy” asarida esa Mavlono Husayn Voiz degan nomlar bilan atalganligini ko‘rish mumkin.

Sankt-Peterburglik sharqshunos olim Abdurahmon Tohirjonov Kamoliddin Husayn ibn Ali Voiz deb adabiy taxallusini esa al–Koshifiy, al–Bayhaqi, al–Sabzavori, al–Haravi deb yuritilishi haqida ma’lumot keltirilgan.

Eronlik olim Said Nafisiy “Eron antologiya”sining birinchi jildida Kamoliddin Husayn bin Koshifiy Bayhaqi Harovi, mulla Husayn Koshifiy deb ishlatsa, boshqa asarlarida esa, al–Shikafiy deb nomlanganini e’tirof etadi. Husayn Voiz Koshifiyning ism–sharifi turlicha qo‘llanishi uning shaxsi bilan bog‘liq ma’lumotlardagi nomlanishlar bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Manbalarda mutafakkirning nomlariga qo‘sib aytilgan, “mavlono”, mahdum”, “hakim”, “mulla”, “kamol” so‘zlarining umumiy ma’nosи bir xil bo‘lib, hurmat, yetuklik, o‘qimishlilik, donishmandlik ma’nosida qo‘llanilgan. Shuning uchun ham uning ismiga Kamoliddin, otasining ismiga esa Husayn, adabiy taxallusi voiz Koshifiy deb yuritilganligini ko‘rish mumkin.

O‘rganilgan manbalarga asoslanib, biz, Husayn Voiz Koshifiy ilmiy merosida 200 dan ortiq turli mavzulardagi asarlari mavjud ekanligining guvohi bo‘ldik.

Biz tadqiqotni amalga oshirish davomida R.J.Mahmudovning fikriga tayanib, Husayn Voiz Koshifiy asarlarini mavzu jihatdan o‘rganib, ularni quyidagicha tasniflashga harakat qildik.

1. Odob-axloq mavzusidagi asarlari: “Axloqi Muxsiniy”, “Risolai Xotamia”, “Anvori Suxayliy”, “Axloqi Karim”, “Lubob–ul ma’naviy fi–intixobi”, “Masnaviy”, “Javohirnomা”.

2. She’r san’ati, adabiyotshunoslik, tilshunoslikka bag‘ishlangan asarlari: “Badoe al–afkor fi sanoe ul–ash’or”, “Matlai anvor”, “Tafsiri forsyi”, “Sharhi Masnaviy”, “Manzum avomul almata fi alna xu”.

3. Tarixiy mavzudagi asarlari: “Iskandar oynamasi” (“Jomi–jam”), “Allasama al Husayniy”, “Mavohibialiya” (“Tafsiri Husayniy”, “Oliy tuhfalar”), “Lab–e lubob–e masnaviy– Rumi”, “Zod–ul– musofirin”, “Nuvsol–e asr”, “Avomul”.

4. Davlatni boshqarish to‘g‘risidagi asarlari: “Axloqi Muxsiniy”, “Javohirul tavsif fi tuhfat ul amir” (“Tafsif javohirlari va amir sovg‘alari”), “Tuhfat as–salavat”.

5. Kimyoga oid asarlari: “Mafoteh–ul kunuz fi–kimiyo”, “Asror Qosimiy dar ilmi kimyo, simyo, rimyo, ximyo, muxtimal bar tillosim va shafobad va g‘aroyim tasxirati masnafiy”.

6. Astronomiyaga oid asarlari: “Lavoyihul qamar”, “Sab’ai Koshifiya”, “Ixti yarat an-nudjum”, ”Labi lavoyixul kamari fi la x’ayorot”.

7. Matematikaga oid asarlari: “Risola dar ilmi a’dod”.

8. Voizlik san’atiga oid asarlari: “Dah majlis”, “Maxzan ul insho” (“Sahifai shohi”), ”Insho”.

9. Musiqaga oid asarlari: “Tuh–fat at–Tafsir”.

10. Diniy asarlari: “Tafsir mavohibul xalid ma’a Qur’oni Karim”, “Ba foiri Qur’on mavohib ul dosir”, “Muxtasar al–Djavohir”, “Ravzat ush–shuxado”, “Tafsir mavohibul xalid xalalin ma’n al–qur’on”, “Tafsire Husayn ma Qur’on”, “Tasxil al–bayoyon fi tafsiri al–Qur’on”, “Risolayi aliya fi–al–axadisa nabaviya”, “Fayz–ul navol fi bayon–iz–zavol”.

11. Tasavvufga oid asarlari: “Zod–ul musofirin”, “Futuvvatnomai Sultonii”.

12. Badiiy asarlari: fors va o’zbek tillaridagi ikki she’rlar, g‘azallar devoni. ”Matla’–ul anvor”, ”Anvori Suxayliy” (“Kalila va Dimna”) va boshqalar.

13. Tibbiyotga oid asarlari: “Lubabul–bob”, “Risola dar avrod va adviya”.

14. Geografiyaga oid asarlari: “Al risolatul xamiya fa al xadis nabiviyata Hirot”.

15. Turli fanlarga oid asarlari: “Enteyorat ul–Koshifiy”, “Al lubab al ma’naviy fi intihob ul masnaviy”, “Kitobi ul ma’navi fi intihob ul ash’ori”, “Suvrat is va fatx va al–voqeа tafsirlari”, “Suvrati alna ad–mayda al–laarondan boshqa so‘zlar”, “Tafsir suratu fatx va tar vaf’a”, “Xoxar–ul isron va zavo xabul–unvon”, “Xozarul tafsir tuhfati–al amir”, “Marsadas asniy dar istihrodi asmo Hasaniy”, “Tafsiri oyaot farona”, ”Tafsiri ayatimiroz”, ”Al xidoyikul loxul” kabilar.

Husayn Voiz Koshifiy hayoti va ijodiga qiziqish uning hayotligidayoq boshlangan. Buni Mirxon, Xondamir, Alisher Navoiylarning Husayn Voiz Koshifiyga bergen tavsiflaridan anglash mumkin. Husayn Voiz Koshifiyning ma’naviy - axloqiy ta’limoti ”Axloqi Muhsiniy”, ”Axloqi Karim”, ”Futuvvatnomai Sultoniy”, ”Risolati Xotamia”, ”Tafsiri Husayniy” asarlarida mukammal bayon qilingan.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining rivojlanish tarixi mamlakatlarda sinfiy jamiyatning shakllanishi va qaror topishi, G’arb va Sharq xalqlari madaniyatining o’zaro ta’siri hamda hamkorligi bilan chambarchas bog’langan holda taraqqiy etgan. Bu davrda ta’lim-tarbiyaga oid fikr taraqqiyoti shakllana boshlagan. Husayn Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlari va uning ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalari bu davrda rivojlangan.

Husayn Voiz Koshifiy ”Futuvvatnomai Sultoniy” asarida inson o’ziga nimani ravo ko’rsa, boshqalarga ham shuni ravo ko‘rishi, muhtoj, beva-bechora, hayotda xo‘rlangan g‘ariblarga o‘z yordamini ayamasligi lozimligini alohida ta’kidlab o‘tgan.

Husayn Voiz Koshifiy axloqiy fazilatlarni alohida tarzda tushuntirib berishga harakat qilgan. Masalan, ”Axloqi Muhsiniy” asarida ”Haq taolo fayzidan topgan yaxshi xulqining nurlari bu inson toifasi sarasining ahvol sahifasidan yarqirab turar edi, bunga diqqat bilan qarash bilan anglab, duogo‘ylik va davlatxohlik tariqi bo‘yicha, garchi ulug‘ qadrli oliy hazratning o‘z sifatlarini bayon qilishga imkon bo‘lmaseda, mulozimlarining yaxshi xulqi va maqbul xislatlaridan bir necha kalimani bayon varag‘iga yozishni xohladim. Toki o‘zga Podshohlar avlodiga ibratnama va dasturilamal bo‘lsin. Shunday xayol bilan bu risolaning nomini ”Axloqi Muhsiniy” deb

yozishga qaror qildim. Koshifyi fikricha, ezgulik jamiyat hayotidagi qulay imkoniyatlar bilan bog‘liq. Insonga yuklatilgan va buyurilgan narsa fazilat bo‘la olmaydi. O‘rta asrlarda esa Foma Akvinskiy fazilatni “qobiliyatning mukammalligi” deb ta’riflaydi va uni yaxshi odatlar toifasiga kiritib, ular orqali ezguliklar amalga oshiriladi. Tomas esa to‘rtta fazilatni eng muhim deb hisoblaydi: ehtiyotkorlik, adolat, bo‘ysunish va jasorat. Bundan tashqari, eng oliy “imon, umid, sevgi” fazilatlar ham mavjudligi ayrim manbalarda keltiriladi.

Axloq va odob meyorlari ijtimoiy munosabatlар, ta’lim-tarbiya asosida shakllanadi. Shu sababli, insonda tabiiylikka nisbatan ijtimoiylik, tarbiyalanganlik ta’siri kuchlidir. Ta’lim-tarbiya, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi insonlarning xatti-harakatlarini, ular o‘rtasidagi munosabatlarni ma’naviyat bilan bog‘lanmagan tabiiy ehtiyoj va imkoniyatlar chegarasidan tobora uzoqlashtirib boradi.

Tilimizda “odob” tarzida talaffuz qilinishiga odatlanib qolingga arabcha “adab” so‘zi aslida yaxshilikka chaqirishni anglatadi. U “ma’daba” o‘zagidan olingan. Ma’daba esa odamlarni yaxshilikka, ma’naviy ziyofatga chaqirishni anglatadi. Demak, odob yaxshilik demakdir. “Ijtimoiy odoblar” esa ijtimoiy muomalalarni eng yaxshi tarzda olib borish deganidir. Masalan, “kiyinish odobi”- chiroqli kiyinish, “Suhbat odobi”- suhbatning eng yaxshi saviyada olib borilishi ko‘zda tutiladi. Bu kabi insoniyat har sohada, har daqiqada duch keladigan axloqiy fazilatlarni uzoq davom ettirish mumkin.

Odob masalasi Islomda o‘ta muhim bo‘lib, beodoblik barcha narsani, qalbni, tilni ham boshqa barcha munosabatlarni buzadi. Shuning uchun ham biz axloqiy fazilatlarning rivojlanishiga doim ijobiy ma’noda qaraymiz.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Husayn Voiz Koshifyi asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik ta’limotlarning ifodalanishi**” deb nomlanadi. Bunda Husayn Voiz Koshifyi asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga oid ta’limotlarning mazmuni, “Axloqi Muhsiniy” va “Futuvatnomai Sultoniy” asarlarida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi tavsiflangan. Qolaversa, “Axloqi Muhsiniy” va “Futuvatnomai Sultoniy” asarlaridagi ta’limiy-axloqiy g‘oyalaridan ta’lim - tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan.

Husayn Voiz Koshifyi javonmardlarni shaxsiy, axloqiy, huquqiy, ijtimoiy sifatlarni sodda, ravon bayon qilib, mazkur tariqatning boshqa tariqatlardan farqli tomonlarini bayon qilib, yoshlarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalovchi sifatlarni ham atroflicha bayon qiladi. Mazkur tariqat yo‘li qiyin va murakkab. Shuning uchun bu yo‘lni ixtiyor etgan yoshlar adashmasliklari, ularni har xil kishilar chalg‘itmasliklari uchun ham “pir (ustoz)” rahnamolik vazifasini bajaradi. Koshifyi shunday yozadi: “Bilgilkim, tariqat yo‘lining qaroqchilari ko‘pdir, ular nodon va kalta fahmlarni hiylanayrang donosi bilan “makru firib domi”ga tushirish payidadirlar. Shuning uchun rahnamo bo‘la oladigan, pirlik (ustozlik) shart-sharoiti va ruknlari (asoslari)ni yaxshi biladigan odamni pir, deb tanlash lozim”. Pir (ustoz) tariqat bo‘yicha “O‘zi kamolot darajasini egallagan va boshqalarni ham kamolga etkazishga qodir va shayxlik shartlari, ruknlaridan to‘la xabardor kishiga aytadilar”. Ustoz e’tiqodli, pok, to‘g‘ri

yo‘ldan adashmaydigan, etarli bilim egallagan, tariqat ilmini shuqur o‘zlashtirgan kishi bo‘lishi kerak.

Manbalarda “javonmard” so‘zi malomatiylarga nisbatan keng qo‘llanilgan. “Malomatiya haqida risola” muallifi as-Sulamiy (vaf. 1021-y.) futuvvatga bag‘ishlab alohida bitgan risolasida haqiqiy javonmardning 212 ta ta’rif va sifatini keltirgan. As-Sulamiyning izdoshi bo‘lgan tasavvuf tarixnavisi al-Qushayriy (vaf. 1072-y.) o‘zining “Qushayriy risolasi” asarida futuvvat mavzusini aks ettirgan. Kaykovusning (XI asr) “Qobusnama” asarining 44-bobi “Javonmardlik zikrida” deb ataladi va unda futuvvat odobi, 35 tur insonlarga xos go‘zal axloq namunalari haqida so‘z yuritilgan.

Al-Koshifyi futuvvatni tariqatning asosiy qismi, deb qarashi, o‘z axloqiy ta’limotida mukammal inson sifatlarini ishlab chiqqan va ular 10 ta deb ko‘rsatadi. Bular:

1. Xayrli ishlarda odamlar bilan ziddiyatga bormaslik (elga teskari ish qilmaslik).
2. His-tuyg‘u va ehtiroslarga berilmaslik (nafsnı tiyish).
- 3.O‘zgalar aybini ochmaslik.
- 4.Birovlarning baxtsizligiga hamdard bo‘la olish.
5. Agar aybdor o‘z aybiga iqror bo‘lsa uni avf etish.
6. Muhtojlarga yordam ko‘rsatish (saxiylik).
7. Kishilar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish (o‘zgalar uchun mashaqqat tortish).
- 8.O‘z nuqsonlarini ko‘ra bilish.
- 9.Xulq-odobli bo‘lish.
10. Xushmuomalali bo‘lish. Bundan tashqari, Koshifiyning yuzni o‘qish san’ati to‘g‘risidagi ta’limoti ham axloqshunoslik uchun katta ahamiyatlidir.


Tadqiqot yuzasidan bugungi kungacha nashr qilingan “Umumiy pedagogika”, “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Pedagogika” fanlarining o‘quv dasturi va darsliklarini qiyosiy o‘rganganimizda Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy merosi, ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari mazkur manbalarda etarlicha izohlanmaganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy” asarlarida “Futuvvat” so‘zining kelib chiqishi va ta’riflariga to‘xtalsak: “Futuvvat” - arabchada yigitlik, mardlik - tasavvufda boshqalarni himmatda yuqori tutish, faqat yaxshilik yo‘lidan borish, odob – axloqda boshqalarga o‘rnak bo‘lish, ustozlar va do‘s tlarga doim himmat qo‘lini cho‘zish hamda olujanob xislatlarni o‘zida mujassam etgan kishilar birligi tushuniladi. “Futuvvat” so‘zidagi “fata” o‘zagi -“yigit” degan ma’noni bildiradi. Junayd al-Bog‘dodiyning ta’rifiga ko‘ra “Futuvvat- saxovatpeshalik, birovgaga zarar etkazmaslik va shikoyat qilmaslik (noshukr bo‘lmaslik) tushunilgan. Islom so‘fiylaridan Ali ibn Abu Tolib futuvvat mayog‘i hisoblanadi. “Zulfiqordan boshqasi qilich emas, Alidan boshqasi “fatiy” emas” iborasining keng tarqalishi xususida fikrlar mavjud (1-rasm).

**Ijtimoiy zaruriyat:** Ajdolarimizning boy merosini ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish, talabalarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish

**Maqsad:** Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi

### Pedagogika fanlarini o‘qitish jarayoniga yondashuvlar va ta’lim prinsiplari



### Oliy ta’lim muassasasidagi pedagogik faoliyat

Faoliyatning o‘quv-tarbiya jarayonidagi yo‘nalishi

1 Faoliyatning auditoriyadan tashqari ta’lim tarbiya yo‘nalishi

**Pedagogik innovatsiyalar:**  
o‘quv-tarbiya jarayonining shakl, metod, vositalari

**Ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish jarayonining obyektlari:** talabalar

**Ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish jarayonining subyektlari:**  
pedagoglar, guruh rahbarlari, mahalla, ota-onalar


Talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarning rivojlanganligini ko‘rsatuvchi shaxsiy xususiyatlar

Husayn Voiz Koshifiyning Husayn Voiz Koshifiyning ma’naviy - axloqiy ta’limoti “Axloqi Muhsiniy”, “Futuvvatnomai Sultoniy” asarlарини xусусиятларни билиш, устоз-шоғирд муносабатлари, чироғли хулқ ва мулоғимлик, ростго‘йлик, сабр, қаноат, адолат, вафо ва аҳд, омонат, шағфатлilik, муомала ва сухбатлашish, фаросат тушчунчаларни аংглаган хода комилликка итилш

**1-rasm. Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish modeli.**

“Axloqi Muhsiniy” va “Futuvatnomai Sultoniy” asarlarida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasini quyidagi sxemada ko‘rish mumkin (2-rasm).

### Husayn Voiz Koshifiy asarlari vositasida talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish jarayonining texnologik tizimi



#### **2-rasm. Husayn Voiz Koshifiy asarlari o'qitishning texnologik tizimi.**

Chunonchi, 2013-yilda R.Mavlonova va mualliflar jamoasi tomonidan nashr qilingan “Pedagogika”, 2018-yilda R.Mavlonova va boshqalar tomonidan boshlang‘ch ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun nashr etilgan “Umumiyy pedagogika” darsliklarida hamda professor B.X.Xodjayev tomonidan 2017-yilda nashr qilingan “Umumiyy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” darsligining pedagogika tarixi qismida Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy merosi haqida ma’lumot keltirilmagan. Ammo, ayrim darslik va o‘quv qo‘llanmalarda dissertatsiya muammosi doirasida mavzular berilgan. Chunonchi, 1996-yilda K.Hoshimov tomonidan nashr etilgan “Pedagogika” darsligida hamda 2012-yilda N.Ataeva, F.Rasulova, M.Salaeva, S.Xasanovlar tomonidan chop etilgan “Umumiyy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasida “Husayn Voiz Koshifiyning komil inson konsepsiysi” ra bag‘ishlangan ma’lumotlar keltirilgan. Umuman olganda, keyingi 5 yillikda nashr qilingan oliy ta’lim uchun nashr etilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarda Husayn Voiz Koshifiyning ilmiy merosiga etarli e’tibor qaratilmagan.

